

INGLIZ FANTASTIK ADABIYOTIDA UCHRAYDIGAN METAFORALARNING
O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILINISH JARAYONIDAGI
MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR

Jo'rayeva Sevinch Jo'ra qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Yo'nalish: Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili)

Tel: +998887390210

Annotatsiya Mazkur maqolada ingliz fantastik adabiyotida uchraydigan metaforalarning o'zbek tiliga tarjima qilinish jarayonidagi madaniyatlararo munosabatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, metaforalarni matn sifatida tarjima qilish nazariyalari, fantastik materiallarda diniy uslubning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz fantastik adabiyotini tarjima qilish tarixi va frazeologik birliklarni tarjima qilishning turli usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada metafora haqida umumiy nazariy ma'lumotlar ham beriladi hamda ingliz metaforalarining o'zbek tilidagi tarjimalarida madaniy tarjimalilik muammolari misollar orqali tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: metafora, fantastik adabiyot, frazeologik birliklar, tarjima, madaniyatlararo munosabatlar, madaniy tarjimalilik, diniy uslub.

Abstract This article analyzes the intercultural relations in the process of translating metaphors found in English fantasy literature into Uzbek. It also examines the theories of translating metaphors as texts, the peculiarities of religious stylistics in fantastic materials, the history of translating English fantasy literature, and various methods of translating phraseological units. The article provides general theoretical information about metaphors and analyzes the issues of cultural translatability of English metaphors into Uzbek through specific examples.

Keywords: metaphor, fantasy literature, phraseological units, translation, intercultural relations, cultural translatability, religious stylistics.

Аннотация В данной статье анализируются межкультурные отношения в процессе перевода метафор, встречающихся в английской фантастической литературе, на узбекский язык. Также рассматриваются теории перевода метафор как текста, особенности религиозного стиля в фантастических материалах, история перевода английской фантастической литературы и различные методы перевода фразеологических единиц. В статье приводится общая теоретическая информация о метафорах, а также анализируются проблемы культурной переводимости английских метафор на узбекский язык на конкретных примерах.



Ключевые слова: *метафора, фантастическая литература, фразеологические единицы, перевод, межкультурные отношения, культурная переводимость, религиозная стилистика.*

Bugungi globallashuv davrida turli xalqlarning adabiy meroslarini bir-birlariga xatosiz yetkazishda tarjima san'ati muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ingliz fantastik adabiyotini o'zbek tiliga tarjima qilayotganda nafaqat til, balki madaniyat va tafakkurning ham o'ziga xosligini inobatga olish muhim hisoblanadi. Tarjima jarayonida keladigan asosiy muammolardan biri, tilning o'ziga xos metaforalarini o'zbek tiliga to'g'ri va mos ravishda o'girishdir. Zero, metaforalar har bir millatning o'ziga xos dunyoqarashi, qadriyatlari va tafakkur tarzidan kelib chiqqan holda yuzaga keladi.

Nafaqat ingliz, balki barcha millatlarning fantastik adabiyotida metaforalar faqat badiiy bezak sifatida ko'rilmaydi, ular muhim ma'nolarni, diniy va falsafiy tushunchalami ifoda etish vositasi ham hisoblanadi. Shu tufayli, ularni boshqa tillarga tarjima qilishda tarjimon nafaqat til qoidalarini, balki madaniy tafovutlarni ham inobatga olishi kerak. Tarjimon dastlab metaforalar zahirida yotgan ma'no, kontekst va asar ruhiyatini to'liq anglab, ularni o'quvchiga tabiiy va shu bilan birgalikda tushunarli qilib yetkazishga harakat qilishi kerak.

Tarjima nazariyasida bir qancha muhim tamoyillar bo'lib, matnni alohida so'zma-so'z emas, balki yaxlit holda, butun mazmun va uslubni saqlagan holda yetkazish zarurati asosiy tamoyillardan biridir. Zamonaviy tarjima asoschilaridan biri Peter Newmark ham tarjimon matnning kommunikativ va semantik jihatlarini inobatga olgan holda, original asardagi g'oyalarni maqsad tiliga mos uslubda aks ettirishi kerak deb hisoblaydi. Unga ko'ra, tarjima jarayonida nafaqat alohida so'zlar, balki ular orasidagi o'zaro bog'liqlik, kontekstdagi ma'nolari va matnning umumiy ruhiyati saqlanishi lozim. Shu bois, tarjima faqat lingvistik emas, balki ijodiy va madaniy moslashtirish jarayoni hisoblanadi.

Bundan tashqari, fantastik adabiyotda diniy uslub va uning ifodalari ham o'ziga xos o'ringa ega. Ingliz fantastik asarlarida esa diniy obraz va tasavvurlar turli shakllarda namoyon bo'ladi va ular o'z navbatida har bir madaniyatda har xil talqin qilinadi. Bunday asarlarni boshqa tillarga, xususan, o'zbek tiliga tarjima qilganda diniy metafora va iboralarini to'g'ri ko'chirish katta mas'uliyat talab etadi. O'zbek madaniyatida, ayniqsa, Islom diniga asoslangan tushunchalar ahamiyatliroq bo'lib, ingliz tilidagi diniy simvol va tasvirlarni o'zgartirishda ushbu madaniyatlararo tafovutni ham hisobga olish darkor.

Masalan, ingliz fantastik adabiyoti yirik vakili J.R.R. Tolkienning "Hobbit" asarida bir nechta diniy va ma'naviy metaforalarni uchratish mumkin. Xususan, "oq nur" (white light) tasviri koinotdagi yaxshilik va numi anglatadi va bu nur tasviri Islom madaniyatida ham muqaddas va poklikni ifodalovchi simvollarga o'xshash bo'lishi mumkin. O'zbek tiliga tarjima qilganda, bu tasvirni oddiygina "oq nur" deb tarjima qilish mumkin, lekin Islom madaniyati kontekstida uni "haqiqiy nur" yoki "muqaddas nur" iboralarini orqali tarjima qilish ko'proq ma'no va moslik kiritadi.





Badiiy adabiyot va tarjima nazariyasi o'rtasidagi bog'lanish uzoq vaqtdan beri mavjud. Tarjima, tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'tkazishdan tashqari, badiiy matnning estetik va madaniy jihatlarini ham saqlashni talab qiladi. Bu jarayon asarlarni ko'chirishda badiiy uslublar, obrazlar va to'liq mazmunni saqlashga harakat qilishni anglatadi. Badiiy asarlarni tarjima qilishda uning mazmuni va maqsadi asosan o'zgarmasdan, til va madaniyatlararo farqlar hisobga olinib, to'g'ri, tushunarli va samarali tarjima yaratish muhim ahamiyatga ega.

Tarjima tarixi davomida ko'plab ilmiy tadqiqotchilar, jumladan Eugene Nida, Peter Newmark va Lawrence Venuti kabi mutaxassislar tarjima jarayonining nazariy asoslarini ishlab chiqishda ko'p ishlar olib borishgan. Nida o'zining "Dynamic equivalence" (Dinamik ekvivalentlik) konsepsiyasida tarjima tilidagi matnni qabul qiluvchi madaniyatga moslashtirish zarurligini ta'kidlagan. Bu esa, o'z navbatida, fantastik asarlarni tarjima qilishda madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishni talab etadi. Badiiy adabiyotlarda frazeologik birliklar, jumladan, metaforalar turli madaniyatlarda farqli tarzda talqin qilinadi. Shuning uchun tarjima jarayonida o'zgarmas, lekin madaniyatga mos keladigan tarjima usullaridan foydalanish juda muhim hisoblanadi.

Fantastik adabiyotlarda tasvirlar va jumlalarining tarjimasi har doim muhim masala bo'lib kelgan. Tarjimon asarni boshqa tilga o'tkazayotganda, uning asl ko'rinishini saqlash bilan birga, o'quvchi uchun tushunarli va qiziqarli qilish uchun ba'zi o'zgarishlar kiritadi. Bu jarayon madaniy va diniy tushunchalarni moslashtirishni ham talab qiladi.

Fantastik adabiyotda uchraydigan frazeologik birliklarni tarjima qilishning turli tarjima nazariyachilari, xususan, Mona Baker, Peter Newmark, Jean-Paul Vinay, Nida tomonidan tavsiya etilgan usullari mavjud. Bu usullarning barchasi madaniy va kontekstual farqlarga asoslangan. Quyida ularning eng asosiylari keltirilgan:

- Ekvivalent almashtirish - bu usulda tarjima qilishda tarjimon asardagi asl iboraga o'xshash, ma'nodosh frazeologik birlikdan foydalanadi. Masalan, ingliz tilidagi "spill the beans" iborasini o'zbek tiliga "sirini oshkor qildi" tarzida tarjima qilinadi.
- So'zma-so'z tarjima qilish - bu uslubda frazeologik birliklar so'zma-so'z tarjima qilinadi, lekin tarjima qilinayotgan birlik ikki tilda ham tushunarli bo'lsagina ushbu uslubdan foydalaniladi. So'zma-so'z tarjima madaniy kontekstlarda ko'proq qo'llaniladi, ammo bu usul ko'pincha tarjima jarayonida ma'no buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Tushuntirish/Ta'riflash orqali tarjima - bu usul frazeologik birlik yoki uning ekvivalenti tarjima qilinayotgan tilda aynan mavjud bo'lmasa, ishlatiladi. Bunda tarjimon iborani ochiq va batafsil tarzda bayon qiladi. Masalan, "He met his Waterloo" iborasi o'zbekchada "U o'zining eng katta mag'lubiyatiga uchradi" tarzida tushuntiriladi.
- Madaniy adaptatsiya - bunda madaniyatlararo tafovutlar inobatga olinib, iboralar boshqa madaniyatda mavjud, ammo o'xshash funksiyaga ega bo'lgan iboralar bilan almashtirib tarjima qilinadi. Bu yuqorida ta'kidlangan "Dynamic equivalence" konsepsiyasiga asoslanadi (Nida, 196)





● Tarjima qilmasdan tashlab ketish - juda ehtiyotkorlik bilan ishlatiladigan ushbu tarjima uslubida iboraning tarjimasi kontekstdan tashqarida bo'lsa yoki juda tushunarsiz bo'lsa, tarjimada butunlay olib tashlanadi.

Metafora – bu bir narsani boshqa bir narsa orqali ta'riflashning bir yo'li. Bu san'at usuli orqali biror narsa ikkinchisi bilan solishtirib, yangi ma'no yaratish mumkin. Lingvistik olimlar Lakoff va Johnsonning fikriga ko'ra, metaforalar faqat til usuli emas, balki odamning fikrlashida muhim rol o'ynaydi. Ular orqali odamlar murakkab tushunchalarni tushunishga harakat qiladilar, va bunday usul fantastik adabiyotda keng tarqalgan.

Tarjima qilishda metaforalarni to'g'ri ifodalash juda muhim, chunki ular tilni emas, balki madaniyatni ham ifodalaydi. Shuning uchun, tarjimon faqat so'zlarni emas, balki madaniy kontekstni ham bilishi kerak.

Masalan, inglizcha “the light of hope” sifatida ifodalangan metafora o'zbek tilida “umid uchquni” yoki “umid nuri” deb tarjima qilinadi. Lekin ba'zan metaforani to'liq so'zma-so'z tarjima qilish qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun, ba'zida ularni izohlash yoki boshqa bir tasvir bilan ifodalash kerak bo'ladi. Ayniqsa diniy, madaniy yoki tarixiy ma'nosi bor metaforalarga alohida e'tibor berish zarur.

Maqola boshida ta'kidlanganidek, fantastik adabiyotdagi metaforalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda eng katta muammo madaniy tafovutlardir. Ingliz tilida ishlatilagan metafora ko'pincha g'arb madaniyati, dini yoki tarixi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, J.K. Rowlingning “Harry Potter” kitobida “He rose like a phoenix from the ashes” degan ibora G'arb mifologiyasida qayta tug'ilish ramzi sifatida tanilgan. Bu o'zbek o'quvchisi uchun tanish bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun, tarjimon bu iborani “yana kuchli bo'lib qaytdi” yoki “yo'q bo'lib qaytadan paydo bo'ldi” kabi tushunarli qilib o'zgartirishi kerak. Bundan tashqari, J.R.R. Tolkienning “The Hobbit” kitobidagi “light in dark times” metaforasi g'arbda najot va umid timsoli sifatida ko'rilsa ham, o'zbek madaniyatida bu ibora diniy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Tarjimada bunday metaforalarni bevosita tarjima qilish ko'pincha ma'noni yo'qotishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, tarjimada madaniyat kontekstiga mos va muallifning niyatini saqlagan iborani tanlash juda muhim. Shu bilan birga, fantastik asarlarni tarjima qilishda madaniyatlararo farqli qarashlarni hisobga olish matnni ko'proq tushunarli va ta'sirli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Newmark, Peter. A Textbook of Translation. Prentice Hall International, 1988.
2. Lakoff, George; Johnson, Mark. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980.
3. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 1992.
4. Qosimov, Sh. Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2009.
5. Zaytseva, E. A. Problemy perevoda khudozhestvennogo teksta. Moskva: Flinta, 2006.





6. Tolkien, J.R.R. The Hobbit. HarperCollins, 1937
7. Nida, E. A. (1964). Tarjimaga ilmiy yondashuv: Xususan, Injil tarjimasidagi prinsiplarga oid. Leiden: E.J. Brill.
8. Rowling, J.K. (1997). Harry Potter and the Philosopher's Stone.

